

QORAXONIYLAR DAVRIDA TA'LIM: YUSUF XOS HOJIB VA MAHMUD QOSHG'ARIY FAOLIYATI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.15667698>

S.U. Ulashova

Alfraganus universiteti dotsenti, PhD

sevinch.ulashova@bk.ru

<https://orcid.org/0009-0003-3681-7266>

D.J. Ochilova

Alfraganus universiteti dotsenti, PhD

ochilova.dilobar1908@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0009-8752-1389>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Qoraxoniylar davrida ilm-fan rivoji, ayniqsa Yusuf Xos Hojib va Mahmud Qoshg'ariyning ilmiy-adabiy faoliyati o'rganiladi. Ularning asarlari o'z zamonasining siyosiy-falsafiy va madaniy-ma'rifiy hayotini aks ettirgan noyob manbalar sifatida taqqosiy tahlil qilinadi. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari orqali davlat boshqaruvi, siyosiy-axloqiy qadriyatlar va ilmiy tafakkur yuksalishi aks ettirilgan bo'lsa, Mahmud Qoshg'ariy "Devonu lug'otit-turk" asarida turkiy tillarning tizimli tadqiqi va etnografik ma'lumotlarni ilmiy asosda yoritgan. Shuningdek, maqolada ularning ilmiy merosining o'zaro taqqosiy tahlili orqali Qoraxoniylar davrida ilm-fan va madaniyat rivojining o'ziga xos xususiyatlari yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: Qoraxoniylar, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg'ariy, Qutadg'u bilig, Devonu lug'otit-turk, ilm-fan, komil inson, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, adolat, ilm-ma'rifat, davlat boshqaruvi.

EDUCATION DURING THE QARAKHANID PERIOD: THE ACTIVITIES OF YUSUF KHOS HAJIB AND MAHMUD KASHGARI

S.U. Ulashova

Associate Professor, Alfraganus University, PhD

sevinch.ulashova@bk.ru

<https://orcid.org/0009-0003-3681-7266>

D.J. Ochilova

Associate Professor, Alfraganus University, PhD

ochilova.dilobar1908@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0009-8752-1389>

Abstract. This article studies the development of science during the Karakhanid period, especially the scientific and literary activities of Yusuf Khos Hajib and Mahmud Kashgari. Their works are analyzed comparatively as unique sources reflecting the political, philosophical and cultural and educational life of

their time. Yusuf Khos Hajib's work "Kutadgu Bilig" reflects the rise of state administration, political and moral values, and scientific thinking, while Mahmud Kashgari's work "Devonu Lug'otit-Turk" systematically studies Turkic languages and provides scientific coverage of ethnographic data. The article sheds light on the specific features of the development of science and culture during the Karakhanid period through a comparative analysis of their scientific heritage.

Keywords: Karakhanids, Yusuf Khos Hajib, Mahmud Kashgari, Qutadgu knowledge, Divanu Lugatit-Turk, science, perfect person, spiritual and moral justice, justice, science and enlightenment, state administration.

KIRISH

X-XII asrlar Movarounnahr va butun Markaziy Osiyo tarixida siyosiy barqarorlik, iqtisodiy rivojlanish va madaniy-ma'rifiy yuksalish davri sifatida alohida o'rin tutadi. Ayniqsa, Qoraxoniylar davrida (942–1212) islom dini asosida yangi siyosiy va madaniy tizim shakllanib, ilm-fan taraqqiyoti uchun qulay shart-sharoitlar yaratildi. Bu davrda madrasalar, kutubxonalar va ilmiy markazlarning faoliyati faollashdi, ilmiy va adabiy asarlar yaratilishiga kuchli e'tibor qaratildi.

Qoraxoniylar davrining yorqin vakillari — Yusuf Xos Hojib va Mahmud Qoshg'ariy o'z asarlari orqali nafaqat o'z davrining ilmiy-madaniy darajasini ko'rsatib bergan, balki keyingi avlodlar uchun mustahkam ilmiy asos yaratgan. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari siyosiy va axloqiy tafakkurning yuksak namunasi bo'lsa, Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asari turkiy tillarning ilk ilmiy tadqiqoti sifatida tarixda o'z o'rniga ega bo'ldi.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Markaziy Osiyo tarixida X asrning ikkinchi yarmi va XI asr boshlarida yuz bergan siyosiy o'zgarishlar, yangi turkiy sulolalarning shakllanishi va islom sivilizatsiyasi bilan uyg'unlashuvi mintaqa madaniy va siyosiy taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Aynan shu tarixiy sharoitda, 940 yilda Movarounnahr va Sharqiy Turkiston hududida Qoraxoniylar davlati tashkil topdi. U turkiy xalqlarning ilk musulmon davlati sifatida tarix sahnasida alohida o'rin egalladi. Qoraxoniylar davlati turkiy qabilalar ittifoqidagi yetakchi etnoslar yag'mo, qarluq, chigil, xalachlar tomonidan tashkil etilgan. Bilga Qul Qodirxon sulolaning birinchi hukmdori hisoblanadi. Bu hukmdorning o'g'illaridan biri O'g'ulchoq Qodirxonning jiyani Satuk Bug'raxon 944-945 yillarda islom dinini qabul qilgandan keyin amakisiga qarshi taxt-taxt kurashida g'olib chiqadi va Qoraxoniylar boshqaruvini egallaydi [1:42-43]. Uning hukmronligi davrida davlat hududlarida islom dini tez tarqaladi. Qoraxoniylar davlatida islom dini rasmiy din deb e'lon qilib, uning shu tarzda tarqalishiga imkon beradi.

Bu davrda mintaqa aholisi o'rtasida islom dini tez fursatda tarqala boshlaydi, shuning uchun qoraxoniylar, Birinchi Turk-Islom davlati unvoniga erishdi. Ulkan hududlarni egallab olgan qoraxoniylar 1040 yildan boshlab Sharqiy va G'arbiy qismlarga bo'lingan. G'arbiy Qoraxoniylarning davlat markazi dastlab O'zbekiston, keyinchalik esa Samarqand bo'lgan. Sharqiy qoraxoniylarning siyosiy va harbiy

markazi Bolasog'un, diniy-madaniy markazi esa Qoshg'ar shahri bo'lgan. G'arbiy qoraxoniylarga 1212-yilda Xorazmshohlar, 1210-yilda esa Sharqiy qoraxoniylarga qoraxitoylar tomonidan barham berildi [2].

Qoraxoniylar davrida ko'plab turkiy qabilalar islom dinini qabul qilib, yangi sivilizatsiyaning bir qismiga aylandilar. Sivilizatsiyaviy o'zgarishlar jamiyatlarning turmush tarzidagi o'zgarishlarga olib keldi. Bu davrda turklar og'zaki madaniyatdan yozma madaniyatga, ko'chmanchi jamiyatdan o'troq jamiyatga o'ta boshladilar. Bunda Ahmad Yassaviy, Ahmad Yugnakiy kabi allomalarning o'troq hayotga o'tgan turkiylarga katta ta'sir ko'rsatgan. Ijtimoiy tuzilma va ta'lim olimlar orqali ommaga singdirila boshlandi.

Qoraxoniylar davrida ta'limda ham, fan va siyosatda ham katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Xorazm, Buxoro, Toshkent, Samarqand, Bolasog'un, Marv, Sayram, Qoshg'ar va boshqa shaharlar markazlari ta'lim, fan va san'at markazlariga aylandi. Bu davrning buyuk allomalaridan Ibn Sino, Forobiy, Yusuf Xos Hojib va Mahmud Qoshg'ariylarning ilmiy merosi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini saqlab qolgan. Islom dinining ta'limga bergan katta ahamiyatini anglagan ilm-fan arboblari turli ta'lim faoliyati bilan shug'ullanib, ta'limni har sohada rivojlantirishga harakat qildilar.

Qoraxoniylar tasarrufidagi hududlarda turli xalqlar istiqomat qilgani sababli ham islom, ham xitoy-uyg'ur madaniyatlarining ta'siri katta edi. Mintaqada islomning rivojlanishi bilan turkiy til adabiy tilga aylandi va birinchi marta islom diniga asoslangan turkiy adabiyot paydo bo'ldi. Qoshg'ar shahri ayniqsa, madaniy va diniy faoliyat markazi sifatida muhim mavqega ega edi.

Turk hoqonligidan boshlanib, Uyg'urlar davrida jadallik kasb etgan turkiy xalqlar madaniyati va sivilizatsiyasi bilan qoraxoniylar davrida islom madaniyati va sivilizatsiyasi qo'shib, birlasha boshladi. Natijada yangi madaniy mahsulotlar vujudga keldi. Turkiy xalqlar hatto islomdan oldin yaratgan asarlarini ham islomlashtirgan. O'g'uz xoqon dostoni bu holatning yaqqol ko'rsatkichlaridan biridir. Turkiy xalqlar islom dinini qabul qilgandan so'ng, mintaqada sodir bo'lgan urushlar va boshqa voqealarni islomiy dostonlar shaklida yoza boshladilar. Qoraxoniylar davrining muhim timsollaridan biri bo'lgan "Devoni lug'otit turk"da shu tarzda yaratilgan dostonlarning ba'zi qismlari saqlanib qolgan. Jumladan, "Manas" dostoni ana shunday adabiy yodgorliklardan biridir [3:42-43].

Qoraxoniylar davlatida yaqinda islomni qabul qilgan yuz minglab odamlarning, fiqhni ijro etish uchun mas'ul bo'lganlarning ehtiyojlariga mos ravishda huquqshunoslar va fiqhga oid asarlarga ehtiyoj bor edi. Bu omillar ta'lim va bilimli kishilarga bo'lgan ehtiyojning ko'rsatkichlarini tashkil etadi. Bu ehtiyojlarni qondirish uchun bu davrda zamonaviy madrasalar vujudga kela boshladi.

Madrasa arabchada dars o'tiladigan joy va talabalar ta'lim oladigan bino ma'nosini bildiradi. Dastlabki yillarda masjidlar ta'lim-tarbiya qilinadigan joylar bo'lgan. Ma'rifiy faoliyatning ko'payishi va xilma-xilligi bilan ta'lim markazi masjidlardan madrasalarga o'ta boshladi. Masjidlar o'rnida madrasalar paydo bo'la

boshlagan bo'lsa ham, masjidlar ta'lim maskani bo'lib qolaverdi. Biroq, masjidlar ibodat markazlari bo'lganligi sababli ular ortib borayotgan ma'rifiy faoliyatni to'liq qondira olmadi va ta'lim va ibodatning uyg'unligidan kelib chiqadigan ba'zi muammolar madrasa muassasalarini qurish zaruratini tug'dirdi. Qolaversa, bir tomondan, masjidlarda dars o'tish, ikkinchi tomondan, namozgoh bo'lgan masjidlarda shovqin-suronli, nosog'lom muhit yaratishga chaqirdi. Yana fan sohalarining ko'payib borishi bilan kengaytirilgan dasturga javob berish uchun masjidlardan alohida muassasalar kerak edi. Bu sabablarning barchasi madrasa muassasasining vujudga kelishiga zamin yaratdi. Ushbu o'zgarishlarga mos ravishda, o'rta asrlar islom olamidagi birinchi zamonaviy madrasalar tashkil qilina boshlandi. U 1066 yilda Samarqandda Ibrohim Tamgachxon tomonidan ochilgan [4].

Ushbu muassasani boshqa muassasalardan ajratib turadigan ayrim farqlar mavjud edi. U alohida binoda tashkil qilingan bo'lib, yotoqxona, kutubxona, saylangan ma'murlar va o'ziga xos tuzilishga ega bo'lgan dastur va fanlarga ega edi. Madrasa faoliyatini iqtisodiy ta'minlash ham davlat byudjeti hisobidan amalga oshirilib, bunda talabalar stipendiyalari, inflyatsiya darajasiga qarab belgilanadigan o'qituvchilarning ish haqi, doimiy resurslar, yillik byudjet kabi masalalarni qamrab olgan.

Ibrohim Tamgachxon tashabbusi bilan ta'limdagi bu inqilobdan so'ng XII asrning o'zida birgina Buxoroda olti ming maoshli fakih bo'lganligi ta'lim va mudarrislik faoliyatiga naqadar e'tibor berilganidan dalolatdir [5:410-412].

Madrasalarning asosiy vazifasi aholining ehtiyojlarini qondiradigan imom, muazzin, voiz, mudarris va muftiy kabi bilimdon kadrlar tayyorlash bilan birga qozi, muhtasib, kotib, tarjimon, ayg'oqchi, faqih, vazir kabi davlat amaldorlarini ham tayyorlashdan iborat edi. Madrasa bitiruvchilari sud ishlaridan tortib sug'orish va soliq masalalarigacha ko'p sohalarda faoliyat yuritadigan ehtiyojlarni qondirishi kerak bo'lgan. Madrasalarning tashkil etilishi va ko'payishi davlat va xalqning umumiy ehtiyoji bo'lgan mutasaddi va ruhoniylarni tayyorlash zaruratidan ham kelib chiqqan, deyish mumkin.

X asrda Movarounnahr va Sharqiy Turkistonda tashkil topgan Qoraxoniylar davlati yozma til sifatida qoraxoniylar turkchasini (Hoqoniya turkiysidan) foydalangan. Jumladan, Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'otit turk" asarida Hoqoniya turkchasidan foydalangan. Qoraxoniylar turkchasi qadimgi turk tili hukmron bo'lgan mintaqaga chegaralaridan tashqarida islom sivilizatsiyasining ta'sir doirasida rivojlanishini davom ettirgan va qadimgi turk tilining lingvistik xususiyatlarini kichik o'zgarishlar bilan saqlab qolgan shevadir. Shuningdek, bu davrda uyg'ur yozuvi bilan birga arab yozuvi ham qo'llanilgan.

Qoraxoniylar davridagi turkiy-islom madaniyatini aks ettiruvchi yozma asarlar orasida Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" va Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'otit turk" asarlari juda muhim tarixiy yozma yodgorliklar hisoblanadi.

Yusuf Xos Hojib – XI asrning buyuk adibi va davlat arbobi bo'lib, o'zining mashhur "Qutadg'u bilig" asari bilan tarixda nom qoldirgan. To'liq ismi Yusuf

ibn Husayn ibn Ali bo'lgan adib taxminan 1019-1020 yilda Bolasog'un shahrida tug'ilgan. Yusuf Xos Hojib haqida bizda ko'p tarixiy ma'lumotlar saqlanmagan. U o'z davrining yetuk adibi, mutafakkiri va davlat arbobi sifatida tanilgan. "Xos hojib" unvoni – saroydagi yuqori martabali lavozimlardan biri bo'lib, davlat ishlarida faol qatnashganini ko'rsatadi.

"Qutadg'u bilig"-baxt-saodatga eltuvchi bilim, ta'lim degan ma'noni bildiradi. Demak, asar nomidan ham uning pand-nasihat, ta'lim-tarbiyaga oid yetuk didaktik asar, har tomonlama yetuk insonni tarbiyalaydigan darslik ekanligi yaqqol ko'rinib turibdi. "Qutadg'u bilig" asari Sharqda pandnoma turkumidagi an'anaviy kitob tuzish tartibiga rioya qilingan holda tuzilgan.

"Qutadg'u bilig"dagi bosh g'oya - insonni hayotda baxt-saodatga eltuvchi asosiy qarashlari to'rt ramziy qahramon: Kuntug'di - Elig podsho - adolat timsoli, Oyto'ldi - vazir davlat timsoli, O'g'dulmish - vazir-aql timsoli, O'zgurmish-vazirning qarindoshi-qanoat timsolining hayoti va davlatni boshqarish jarayonidagi hatti-harakatlari va fikrlari orqali berilganki, bular inson kamolotining muhim mezoni sanaladi. Mazkur asarda insonning jamiyat va hayotda tutgan o'rni, burchi va vazifalari haqidagi muammolar o'ziga xos tarzda bayon etiladi [6:60-64]. Olim o'z asari orqali ideal insonni o'z zamonidagi jamiyatning meyorlari doirasida, shu bilan birga oddiy insoniy ehtiyojlardan, xohish-istaklardan kechmasdan yashovchi shaxs sifatida tasavvur qilgan. Yusuf Xos Hojib e'tibor qaratgan asosiy axloqiy masalalardan biri tarbiyadir. Bunda asosiy o'rinda oila va farzand tarbiyasi turadi. Ushbu masalaga Sharqda nafaqat Yusuf Xos Hojib, balki, boshqa olimlar ham e'tibor qaratib kelganlar. Mutafakkir o'z xalqning an'alarini, yashash tarzini, oilaviy axloqiy tarbiya qonun-qoidalarini yaxshi o'rgangan holda, ularni falsafiy jihatdan talqin qilgan [7].

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" dostoni aql va adolat, baxt-saodat, farovonlik haqida so'z yuritib, do'stlik, halollik, rostgo'ylik, kamtarlik, odillik kabi insoniy xislatlarning shaxs kamolotidagi o'rni haqida fikr bildiradi. Unda inson hayoti va faoliyatining asosi — ta'lim-tarbiya va bilim deb e'tirof etiladi. U g'oyaviy tarbiyani faqat ilm-fan va ma'rifat bilan sog'lomlashtirish mumkinligini ta'kidlaydi.

Yusuf Xos Hojib bilimni zulmat ichidagi nurafshon mash'alaga o'xshatadi. Uning fikricha, nutq madaniyati shaxsning bilimdonlik va ma'naviy komillik darajasini belgilaydi, insonni ulug'laydi [8].

Yusuf Xos Hojib ijodiy merosidan bugungi kunda foydalanish zarur bo'lgan qismlaridan biri ilmni to'g'ri yo'lga sarflash, uni jamiyat va davlat manfaatlari yo'lida ishlatish masalasidir [9]. Yusuf Xos Hojib ilmni siyosat va jamiyat boshqaruvi negizi sifatida ko'radi. U asarida islom madaniyati va qadimgi turkiy an'analarni birlashtirgan falsafiy qarashlar tizimini yaratgan. "Qutadg'u bilig" dastlabki siyosiy-falsafiy asar sifatida turkiy adabiyotda o'chmas o'rin tutadi. Asar o'z davrining siyosiy tuzumi, sotsial-iqtisodiy hayoti, urf-odatlar va axloqiy qadriyatlarini aks ettiruvchi qimmatli tarixiy manbadir.

Mahmud Qoshg'ariy ham XI asrning yetuk tilshunosi va tarixchisidir. To'liq ismi Abu'l-Qasim Mahmud ibn Husayn ibn Muhammad al-Qoshg'ariy bo'lgan adib 1029-1030 yilda Qoshg'ar atrofidagi Barsxan (hozirgi Qirg'iziston hududida) shaharchasida tug'ilgan. U 1072-1074-yillarda mashhur "Devonu lug'otit-turk" asarini yozdi. Bu asar turkiy tillarning eng qadimgi va mukammal lug'ati bo'lib, unda 20 dan ortiq turkiy qabilalar tili va madaniyati haqidagi ma'lumotlar jamlangan. Shuningdek, "Devonu lug'otit-turk" asarida turkiy shevalarning o'zaro farqlari, xalq og'zaki ijodi namunalaridan (maqollar, hikmatlar, qo'shiqlar) foydalanilgan, hamda turkiy xalqlarning tarqalish xaritasi ilk bor chizilgan. Asarda 7500 dan ortiq turkiy so'z va iboralar arab tilida tarjima va izoh qilingan.

Mahmud Qoshg'ariy tilshunoslik fanining asoschilaridan biri sifatida turkiy xalqlar tarixini ilmiy asosda o'rgangan. U tilni milliy birlik va ma'naviy yuksalishning asosi sifatida baholagan. "Turk tilini bilgan, o'ziga obro' keltiradi, uni bilmagan esa mulkidan ajraladi", deya ta'kidlaydi Mahmud Qoshg'ariy [10].

Olimning ilmiy ijodidagi eng katta yutuqlaridan biri – Mahmud Qoshg'ariy ilmiy faoliyatida tadqiqotchi va tarjimon uslubidan foydalanib, arab grammatikasi va lug'at tuzilishi tajribasini turkiy tillarga tadbiq qilgan. Olim til va madaniyatni bir-biridan ajratmagan, ularni yagona qadriyat sifatida ko'rgan. U o'z davrining etnografik tarixchisi sifatida ham baholanadi, chunki u xalq hayoti va madaniyatining bevosita kuzatuvchisi bo'lgan.

"Devoni lug'otit turk" turkiy xalqlar tarixi va turkiy til nuqtai nazaridan muhim burilish nuqtasini ko'rsatib berdi. Asar juda muhim mavqega ega, chunki u ko'plab fanlar va olimlarning asarlari uchun asos vazifasini o'taydi.

XULOSA

Qoraxoniylar davri Markaziy Osiyo tarixida ilm-fan va madaniyatning yuksalgan davri bo'lib, aynan shu zamonda Yusuf Xos Hojib va Mahmud Qoshg'ariy kabi buyuk mutafakkirlar yetishib chiqdi. Yusuf Xos Hojib o'zining "Qutadg'u bilig" asari orqali siyosiy-axloqiy tafakkur, adolat va ilm-fanning davlat boshqaruvidagi ahamiyatini targ'ib qildi. Mahmud Qoshg'ariy esa "Devonu lug'otit-turk" asarida turkiy xalqlarning tillari, tarixi va madaniyatini ilmiy asosda o'rgandi. Ularning asarlari Qoraxoniylar davridagi ilmiy va madaniy hayotni aks ettirib, o'z zamonasining bilim darajasini, ijtimoiy-siyosiy qarashlarini yoritadi. Yusuf Xos Hojib va Mahmud Qoshg'ariy faoliyati natijasida turkiy adabiyot, tilshunoslik va siyosiy-falsafiy tafakkur rivojlandi va kelajak avlodlar uchun mustahkam ilmiy-ma'naviy asos yaratildi.

Demak, Qoraxoniylar davrida ilm-fan va ma'rifat taraqqiyoti o'z davrining yirik allomalari orqali namoyon bo'lib, Markaziy Osiyo madaniyat tarixida o'chmas iz qoldirdi.

IQTIBOSLAR / CHOCKII / REFERENCES

1. Polat S. Karahanli devleti'nde e'gitim faaliyetleri //International Journal of Education, Science and Technology. Cilt 1, Sayı 1, Volume 1, Issue 1. – S. 42-52.

2. Ибн ал-Асир. Ал-Камил фи-т-тарих. Полный свод истории/ Перевод с арабского языка, примечания и комментарии П.Г. Булгакова. Дополнения к переводу, примечаниям и комментариям, введение и указатели Ш.С. Камолиддина. – Т., 2006. – С. 334.
3. Öztürk C. Türk Tarihi ve Kültürü. – Ankara: Pegem Akademi, 2007. – S. 42-43.
4. Özaydın, A., Kamalov, İ., Hunkan, Ö. S., Cöhce, S. İlk Müslüman Türk Devletleri. T.C. Anadolu Üniversitesi Yayını No: 2340, Açıköğretim Fakültesi Yayını No: 1337, 2. Baskı. – Eskişehir, 2013. – S. 124.
5. Özaydın, A. Karahanlılar. Türkiye Diyanet Vakfı İslam Ansiklopedisi, 24, 410. İstanbul: Komaş, 2001.- 410-412.
6. İbrahimov E. Türk dünyasında dil politikalarının oluşmasında eserlerin rolü: Kutadgu Bilig'in araştırılma tarihi // Жаҳон туркологиясининг буюк обидаси “Қутадғу билиг” ва уни ўрганишининг долзарб масалалари. Халқаро илмий-амалий конференция тўплами. – Тошкент, 2020. – S. 60-64.
7. Muhamedov A.A. “Yusuf Xos Hojib falsafasida ma’naviy barkamol inson konsepsiyasi “// O‘zMU xabarlari. – № 1/3. – Toshkent, 2025. – B. 136-138.
8. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. Қадимий ҳикматлар тўплами. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – 312 б.
9. Muhamedov A.A. Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda Yusuf Xos Hojib falsafiy merosidan foydalanish istiqbollari //“XXI asr: fan va ta’lim masalalari” ilmiy elektron jurnal. №1, 2024 йил ISSN: 2181-9874 SJIF 2022.-B. 66-69.
10. Махмуд Кошғарий. Девону луғати-т-турк. Нашрга тайёрловчи: Қ.Содиқов. –Тошкент: Ғафур Ғулом, 2017..
11. Aliev B. Turkiy adabiyot va madaniyat tarixidan. – Т.: Akademnashr, 2005.
12. Bobojonov Sh. Qoraxoniylar va ularning madaniy merosi. – Т.: Fan, 2010.
13. Karimov A. *Markaziy Osiyoda o‘rta asr ilm-fan taraqqiyoti*. – Т.: Universitet, 2017.
14. Mahmud Qoshg‘ariy. *Devonu lug‘otit-turk*. 1–2 jild. – Т.: Fan, 1960.
15. Muhammadov A. Mahmud Qoshg‘ariy va uning ilmiy merosi. – Т.: O‘zbekiston, 2003.
16. Sultonova N. Qutadg‘u bilig va siyosiy tafakkur. – Т.: Ma’naviyat, 2002.